



## PARONIMLIK TUSHUNCHASIGA DOIR MULOHAZALAR

Ozoda Faxritdinovna Tursunova

Buxoro davlat tibbiyot instituti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11083174>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 20-April 2024 yil

Ma'qullandi: 25- April 2024 yil

Nashr qilindi: 29- April 2024 yil

### KEYWORDS

*paronimlik, lug`atlar, talqin, misol, o`xshashlik, farq, hodisa, aloqadorlik, so`z.*

### ABSTRACT

*Mazkur maqolda paronimlik tushunchasi va uning izohi haqidagi ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, ushbu tushunchaning terminologik talqini yuzasidagi mulohazalar ham o`rin olgan.*

Nutqiy muloqotning asosiy vositasi so`z ekanligini bilamiz. Fikrni ta'sirchan, to'liq va aniq ifodalash uchun so'zning talaffuzi ham nihoyatda muhim. Bu borada so'zlovchi (masalan, o'quvchi yoki talaba) farqlashi zarur bo'lgan nutqiy hodisalardan biri bu – paronimlardir. Til qay darajada ma'no nozikliklariga ega bo'lsa, nutqdagi paronimlar va ularni qo'llash ham o'ziga xos diqqatni talab etadi.

O'zbek tili leksikologiyasining hozirgi asosiy tadqiq ishlaridan biri, hech shubhasiz, so'z ichki va tashqi tomonlarining o'zaro munosabati hamda ta'sirini aniqlash bilan bog'liq. Bu masala bilan bevosita aloqador hodisalar qatorida sinonimiya, omonimiya, antonimiya, polisemiya, variantlilik va paronimiya bor. Keyingi ikki leksik-semantik kategoriya o'zbek tilshunosligida keng asosda maxsus o'rganilmagan, paronimiya esa umumtilshunoslikda ham hozirga qadar juda kam yoritilgan soha bo'lib qolmoqda [1].

Darhaqiqat, o'zbek tilshunosligida paronimiya hodisasi turli manbalarda qisqa va turlicha talqin etilganligi bois, quyida shularni qiyoslashga harakat qilamiz.

Avvalo internet ma'lumotlariga murojaat etamiz.

Paronimlar (para... va yunoncha onyma – ism, nom) – talaffuzi, eshitilishi va morfem tarkibi o'xshash, leksik ma'nolari boshqa-boshqa yoki qisman yaqin bo'lgan so'zlar. Nutqda ana shunday tarkiban o'xshash so'zlarning mavjud bo'lish hodisasi paronimiya deyiladi. Paronimiya muammosi nutqda paronimlarni ataylab yaqinlashtirish yoki ularning ma'nolarini bilib/bilmay, farqlamay adashtirib ishlatish natijasida kelib chiqadi va nutqiy g'alizlikni yuzaga keltiradi. Odatda, nutq madaniyati va uslubshunoslik sohalari paronimlarni to'g'ri qo'llash bilan aloqador masalalarni maxsus o'rganadi [8].

D.A.Chernoglazov ma'lumotiga ko'ra, *paronim* atamasini dastlab Aristotel yasama so'z ma'nosida qo'llagan [9].

Odatda, rus tilshunosligida paronimlar deganda bir so'z turkumiga mansub, bir xil asosli (o'zakli) so'zlar nazarda tutiladi. Chunonchi, *adresat* (yuboruvchi, jo'natuvchi yoki uzatuvchi)

– *adresant* (qabul qiluvchi), *kompaniya* (tashkilot, muassasa yoki uyushma) – *kampaniya* (mavsum) va b.

N.I.Jinkin paronimlarni barcha zamon va makonlarda doimiy o'rganilishi zarur bo'lgan hodisa sifatida baholaydi va shunday yozadi: «*Haqiqiy muloqot ehtiyojlarini doimiy ravishda qondirish nutq faoliyatidan har xil shakl va ko'rinishlarda, nutqiy sharoitga mos ravishda kompleks foydalanishni taqozo etadi. Bu esa ba'zi til va nutq hodisalarini doimiy ravishda psixolingvistika nuqtayi nazaridan o'rganib turishni talab etadi. Ana shunday hodisalardan biri paronimlardir. Paronimlarning lingvistik parametrlarini aniqlash, ularning paropozitsiyasi yoki paronimik qatorini tashkil etuvchi birliklarni o'rganish, asoslangan funksional semantikaga ko'ra paronimik leksemalarning farqlanishini psixologik asoslarga tayanib tadqiq etish paronimlar ta'sirida nutq buzilishining oldini olishga yordam beradi*»[2].

O'zbek tilshunosligida nafaqat bir xil o'zakli leksemalar, balki talaffuzi o'zaro yaqin asosi turlicha bo'lgan so'zlarga ham paronimlar sifatida qaraladi. Masalan,

#### **afzal – abzal**

**afzal** (arabcha so'z: eng fozil, eng fazilatli) asosan ikki narsa bir-biriga chog'ishtirilganda yaxshi, a'lo, ortiq ma'nolarini beradi. *Nomussiz yurmoqdan nomusli o'lmoq afzal.* (Maqol)[3]

**abzal** (forscha so'z: asbob, ish quroli) ot ulovni minish yoki aravaga qo'shish uchun zarur bo'ladigan asboblarning majmuyi. Yozi otning abzallarini yelkasiga ko'tarib yilqilar orasidan bo'z otni axtarib ketdi. (Yozi va Zebo)[4]

#### **tanbur – tambur**

**tanbur** (arabcha so'z: torli chertma musiqa asbobi; ud) dastasi uzun, uch yoki to'rtta sim torli, noxun bilan chertib chalinadigan musiqa asbobi. *Barot polvon «dodxoh kelibdi, shekilli» deb samovar tomonga qaragan edi, dutor, tanbur, g'ijjak, nay, doira ko'tarib kelayotgan mashshoqlarga ko'zi tushdi.* (M.Ismoilijon)[5]

**Tanbur** juda qadim zamonlardan mavjud bo'lgan cholg'ulardan biridir. O'z ohang tarovati, ijro imkoniyati, hissiy ta'siri jihatidan boshqa turdagi cholg'ular orasida mustahkam o'ringa ega bo'lib kelgan. Vaqt o'tishi barobarida ushbu cholg'u ham mukammallikka yuz tuta borib, an'anaviy mumtoz musiqa ijrochiligida yetakchilikni qo'lga kiritgan.

**tambur** (forscha so'z: tambour gumbazning asos (aylana) qismi; doira) 1. Temir yo'l vagonining kiraverishdagi dahlizchasimon bo'lmasi. *Alohida vagonga qo'shimcha soqchilar qo'yildi. O'zi ham shu vagon tamburiga ko'chib o'tdi.* (H.G'ulom) 2. Binolarning tashqi eshiklari oldiga qurilgan kichik xona, dahliz [6].

Paronimlar lisoniy hodisa emas. Nutqiy bosqichda paronimik juftliklarni farqlamasdan qo'llash (ya'ni birining o'rnida ikkinchisini ishlatish), ularni chalkashtirish (adashtirib yuborish), aslida, muayyan nutq egalarining shu til leksik me'yorlarini yetarli darajada egallamaganligi, shuningdek, so'z ma'nolarini farqlay olmasligi, o'z nutqiga befarqligi natijasida ro'y beradi.

Ba'zan boshqa tildan o'zlashgan birliklarning ifoda plani shu tilda mavjud bo'lgan leksik birlik bilan talaffuz jihatidan yaqin kelib qoladi va nutq egasi tomonidan ularni bir so'z shaklida talaffuz etish natijasida paronimlik yuzaga kelaveradi.

Internetdagi <https://uz.wikipedia.org/wiki/Paronimlar> ma'lumotlarida «til egalari uchun notanish so'zlarning katta qismini terminlar tashkil etishi, fan va texnikaning tez sur'atlar bilan o'sishi natijasida muayyan tilga (masalan, o'zbek tiliga) kirgan yangi so'zlar shu tilda mavjud bo'lgan so'zlar bilan talaffuz jihatdan yaqin kelib qolishi oqibatda yangi-yangi

paronimik qatorlar paydo bo'lishi» haqida aytilgan va mazkur hodisaga *tanbur – tambur, shitob – shtab, ta'rif – tarif, teri–tire, sog'liq – sovliq, enlik–ellik* kabi misollar keltirilgan. Shuningdek, «paronimlarni farqlay bilish, ma'nolarini to'g'ri anglay olish zarur»ligi ta'kidlanib «shunda «sharaf» o'rniga «sharob», «kompaniya» o'rniga «kampaniya», «tovlanmoq» o'rniga «toblanmoq», «enlik» o'rniga «ellik» tarzida qo'llashlarga o'rin qolmaydi» degan izoh keltiriladi.

Fikrimizcha, o'zbek nutqida *tanbur – tambur, ta'rif – tarif, teri–tire, kompaniya – kampaniya, tovlanmoq – tovlanmoq, sog'liq –sovliq, enlik – ellik* kabi paronimik juftliklarning uchrashini tez-tez kuzatish mumkin. Masalan, internetga joylashtirilgan ma'lumotlarda *tanbur* (cholg'u asbobi) o'rnida *tambur* (vagon dahlizchasi) so'zi ishlatilgan o'ndan ortiq matnlarga duch kelamiz.

*Bolani o'zbek mumtoz kuylarini dutor, rubob, tambur, nay yoki g'ijjak kabi cholg'u asboblari ijrosida (O'zbek xalq kuylari – T.Xoliqov «Dutor bayoti», «Usmoniya», «Qashqarcha»; T.Rajabiy «Tanovor» (rubob); T.Alimatov «Nola»(tambur); H.Rahimov «Do'loncha») tinglash; jahon mumtoz musiqasi namunalari (F.Shubert «Serenada»; P.Chaykovskiy «Kasal qo'g'irchoq», («Yil fasllari»); zamonaviy musiqasi asarlaridan bahramand qilish. (<https://e-library.namdu.uz/> 85-b.)*

*...Ovdan so'ng sulton xos soqchisi Akram bilan bir kambag'alning uyiga borib, tunashga ruxsat so'raydi. Ma'lum bo'lishicha uy egasi Mahmud o'tinchi degan kishi ekan. Qo'noq uy burchagida turgan qimmatbaho tamburni ko'rib sohibdan kuy chalib berishni iltimos qiladi.*

*Mahmud uni chala olmasligini aytib uzr so'rabdi va bu tamburni qizining iltimosiga ko'ra sotib olganligini tushuntiribdi. (Ajdodlari farg'onalik Amannisaxon Shohistaxon Uljayevaning ajdodimi? [www.facebook.com/](http://www.facebook.com/))*

*Yosh Yunus Rajabiy ilk adabiyot, folklor va cholg'u sabog'ini o'z onasi Oysha onadan, mohir dutorchi Mirza Qosimov, akasi Rixsi Rajabiylardan olgan bo'lsa, keyinchalik Mulla To'ychi Toshmuhamedov, Xoji Abdulaziz Abdurasulov, Domla Halim Ibodovlardan tambur cholg'usi hamda xonandalik sirlarini o'rgandi. (Namozova D. Bo'lajak musiqasi o'qituvchilarining kreativ kompetentligini musiqasi tarixi fanini o'qitish vositasida shakllantirish// O'zDSMI xabarlar, 2018/2(6). –77-b. <https://dsmi.uz/>)*

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki:

- paronimlarning tarkibiy qismi o'zicha mustaqil, teng huquqli, bir-biriga bo'ysunmagan, bir-biriga aloqasiz semantik strukturaga ega bo'lishi lozim;
- paronimik juftlikning har biri, odatda, adabiy tilda mavjud bo'lishi va bir davrda iste'molda bo'lishi zarur.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Ўзбек тили лексикологияси/Масъул муҳаррирлар: Ҳожиёв А., Аҳмедов А.– Тошкент: Фан, 1981.– 316 б.
2. Черноглазов Д.А. «Омонимы», «синонимы» и «паронимы» в позднеантичной логике и грамматической теории. –Россия: Санкт-Петербургский ГУ
- 3.Жинкин Н.И. Речь как проводник информации. –М.: Наука, 1982. –157 с.
- 4.ЎТИЛ. 1-жилд. –117-б. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi
- 5.ЎТИЛ. 1-жилд. –27-б. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi
- 6.ЎТИЛ. 3-жилд. –660-б. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi
- 7.ЎТИЛ. 3-жилд. –655-б. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi

8.<https://uz.wikipedia.org/wiki/Paronimlar>

9. O.F. Tursunova The possibilities of using textbooks during mother tongue classes / ACADEMICIA An International Multidisciplinary Research Journal 5 (5) - 2021, pp. 408-418

10.<https://cyberleninka.ru/article/n/omonimy-sinonimy-i-paronimy-v-pozdneantichnoy-logike-i-grammaticheskoy-teorii>

11.O.F. Tursunova On the use of study dictionaries in mother language lessons of general secondary schools /

of creating the "annotated dictionary Евразийский журнал академических исследований, 3 (Part 2) -2023, pp. 14-19.

12.O.F. Tursunova Principles of paronyms" for secondary school students / Eurasian journal of social sciences, philosophy and culture, 2/2 – 2022, pp. 216-223

